

FIZIK-GEOGRAFIK OMILLARNING GEOTIZIMLARINING SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI (CHIRCHIQ-OHANGARON TUMANI)

Usmanova Shoira Bektursun qizi

O'zbekiston Milliy universiteti,

Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti 2-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu yozilgan maqolada Chirchiq-Ohangaron hududlarining geografik joylashuvi, tog' va tog'oldi hududlarining paydo bo'lishi, fizik- geografik geotizimlarning shakllanishi va tog' va tog'oldi hududlarda uchraydigan tuproqlarning tuzilishi, tabiiy, fizik-kimyoviy tarkibi haqida fikrlar kiritildi.

Kalit so'zlar: Chirchiq-Ohangaron hududi, fizik-geografik geotizm, relyef, bo'z, unumdor tuproqlar.

Annatation. This article discusses the geographical location of the Chirchik-Ahangaron, the formation of mountain and foothill areas, the formation of physical and geographical system and the structure, natural, physicochemical composition of soils found in mountainous and foothill areas.

Keywords: Chirchik-Ahangaron area, physical-geographical geosystem, relief, gray, fertile soils.

Аннотация: В данной статье рассматривается географическое положение Чирчик-Ахангаронского района, фармирование горных и предгорных территорий, физико-географическое особенности. Формирование природных систем и строение, природных, физический и химический состав почва горных и предгорных территорий.

Ключевые слова: Чирчик-Ахангарон, , физико-географическая геосистема, рельеф, серые, плодородные почвы.

Fizik-geografik viloyatlar Chirchiq-Ohangaron tumanlari o'zining relyefi, tog' va tog'oldi adirlari, keng yaylovlari, tarmoq-iqlim birligi va tekisliklarda kenglik zonalarining o'ziga xos spektri, tog'larda esa balandliklar bilan boshqa tumanlardan ajralib turadi. ¹Chirchiq-Ohangaron tabiiy geografik hududi respublikamizning shimoli-sharqiy qismida, Sirdaryo bilan G'arbiy Tyanshan tog'lari oralig'ida joylashgan. Hududning shimoli-g'arbiy qismi Qozog'iston bilan O'zbekiston orasidagi chegaraga to'g'ri kelib, Qorjontov bilan Ugom tizmalaridan o'tadi. Sharqiy chekkasidagi Qirg'iziston bilan chegara Talas Olatovi, Piskom va Chatqol tog'lari orqali o'tadi. Qurama tizmasi okrugni Farg'ona vodiysidan ajratib turadi. Janubi-g'arbiy chegarasi Sirdaryo bo'ylab o'tadi. Tabiiy geografik okrug G'arbiy Tyanshan tog'larining bir qismini hamda Chirchiq va Ohangaron vodiylarini, shuningdek, Dalvarzin cho'lini o'z ichiga oladi.

Chirchiq-Ohangaron vodiysidagi tog'lar uzoq o'tmishdagi paleozoy, mezozoy va kaynozoy eralari jinslaridan tarkib topgan bo'lib, tog'larda granit, paleozoy ohaktoshlari, qumtosh va slaneslar, tog' etaklari va daryo vodiylarida paleogen, neogen va antropogen davrlarining shag'al, qum va gil qatlamlari uzoq asrlardan beri keng tarqalgan. Chirchiq-Ohangaron yer yuzasining tarkib topishi paleozoy erasidan boshlangan. Tog'lari ilk bor kaledon, keyin gersin burmalanishida ko'tarilgan bo'lib, so'ngra tashqi fizik-kimyoviy kuchlar ta'sirida ancha qismi yemirilgan. Chirchiq va Ohangaron daryo vodiylarini mezozoy erasida dengiz suvi bilan qoplagan. Chirchiq-Ohangaron hududining hozirgi relyefi vujudga kelishida antropogen davrida sodir bo'lgan tabiiy jarayonlar, xususan, neotektonik jarayonlarning ahamiyati va o'rni katta. Zilzilalar natijasida daryo qayirlarining o'z o'zgartirib turishi buning yorqin ifodasidir.

Yigirmanchi asr o'rtalaridan boshlab to hozirgi davrgacha bir qancha geografik tadqiqotlar, kuzatuvlar natijasida yangidan-yangi tog' jinslari, mikroiklim o'zgarishi qolaversa, fizik va tabiiy ko'chkilar, yog'ingarchiliklar mahsuli o'laroq turli-xil hududlaning landshafti o'zgacha ko'rinish kasb etdi va tadqiqotlar natijasida

¹ Geografik faktlar: geogle internet tarmog'idan.

geohududdagi tashqi va ichki ta'sir ostidagi o'zgarishlar laboratoriya sharoitida tahlil qilinib, ularning asl holicha saqlab qolinishi va karoziya holatiga tushib qolmasligi uchun kerakli choralar ko'rilishi ko'zda tutildi.

Shuningdek, tekislik zonalar ham hududlar fizik-geografik tarkibiga kiradi va landshaftlarning tabiiy ko'rinishini ma'lum hududlar joylashuvi hukmronligi bilan ajralib turadi.

Chirchiq-Ohangaron vodiysining tuproq unumdorligi ham o'ziga yarasha ahamiyat kasb etadi. Chirchiq-Ohangaron tabiiy hududining tuproqlari xilma-xil va serunum bo'lib, ular tekislik qismidan tog'ga tomon o'zgarib boradi. Chirchiq va Ohangaron vodiylarining quyi qismida bo'z tuproqlar tarqalganligi natijasida tabiiy holatda o'simliklar o'sishi va tarqalishiga xizmat qiladi. Kimyoviy-fizik xossalari o'zgarmagan, yomg'ir, tabiiy havo aylanishi tuproqning yanada serhosil, unumdor bo'lishiga xizmat qiladi. Bu tuproqlar o'zlashtirilgan bo'lib, sayqalanib madaniy bo'z tuproqqa aylangan.

Hududning 300–500 metrgacha baland qiyalik joylarida och tusli bo'z tuproqlar keng tarqalgan bo'lib, ular tarkibidagi chirindi miqdori 1-1,5 foizni tashkil etgan holda tabiiy xususiyatini yo'qotmagan holda, yillar davomida fizik tarkibi boyishi natijasida unumdorligi oshib borgan. Bu tuproqda o'sadigan o'simliklar yer ostidan ildiz otib, ko'p yillik o'simliklar sirasiga kiradi.

500-1200 metr balandliklarda esa tipik va to'q bo'z tuproqlar tarqalgan. Ularning tarkibidagi chirindi miqdori 4-6 foizga yetadi. Geografik-fizik xossasi o'zgarmagan. Chirindi miqdori yetarliligi sababli o'simliklar inson omili aralashuvisiz tabiiy holatda o'sadi va ko'payadi. 1200—2500 metr balandliklarda esa qo'ng'ir tog'-o'rmon va jigarrang tog'-o'rmon tuproqlari tarqalgan bo'lib, uning tarkibida chirindi miqdori 10 foizga boradi. Bu tuproq ham fizik-kimyoviy xossalarni o'zida to'plagan holda, unumdorligini saqlab qolgan. O'simlik o'sishi tabiiy ko'rinishda amalga oshadi va bu o'simliklar o'z navbatida o'txo'r yovoyi va uy hayvonlari uchun ozuqa vazifasini o'taydi va is'temol qilinadi.

2500 metrdan yuqorida tog‘-o‘tloq, tog‘-botqoq, toshloq-shag‘alli tuproqlar tarqalgan bo‘lib, bu botqoq osimliklari o‘shishi uchun qulay muhit sanaladi. Lekin ayrim turdagi o‘simliklar tabiiy va fizik ravishda ko‘paymaydi ham. Chunki bu tuproqda yetarlicha chirindi mavjud emasligi va tuproqning asosiy qismini suv tashkil qilganligi bilan izohlanadi. Chirchiq-Ohangaron hududining tuproq unumdorligi, tabiiy ko‘rinishini bor holicha kelajak avlodga qoldirish, flora va fauna dunyosini yanada boyitish, tuproqlarning tabiiy holatini yanada oshirish, bu yerda mavjud bo‘lgan qo‘riqxonalar tabiiy lanshaftini saqlab qolish uchun kerakli dasturlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilinmoqda, “yo‘l xaritalari” tuzilib, davlat budjetidan yetarlicha mablag‘lar ajratilini, sohaga doir kamchiliklar o‘rganilishi natijasida, shu yo‘nalishda ishlovchi hodimlarining bilim, ko‘nikma malakalari oshirilib, hududga chegaradosh mamlakatlar bilan hamkorlikda geografik rivojlantirish loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Niyozov R.A. O‘zbekistonda xavfli ekzogen jarayonlarning geologik xavfi // Xalqaro simpozium materiallari "Geologik xavf: baholash va kamaytirish". - Toshkent, 2003. - 20–30-betlar.
2. Niyazov R.A., Minchenko V.D. O‘zbekistonda ko‘chki xavfini mintaqaviy baholash // “Geologik xavf: baholash va kamaytirish” xalqaro simpozium materiallari. - Toshkent, 2003. - S. 156-165.